

YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY MUSIQIY QADRYATLARNING TUTGAN O'RNI.

Abilov Muslim.JDPI. “Musiqqa ta’limi”

kafedra o’qituvchisi

Namozova Kumushoy Ikrom qizi

“Musiqqa madaniyati” fakulteti

2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarga oid davlat siyosatida hamda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda musiqqa san’atining ahamiyati muhim ekanligi yoritiladi.

Kalit so’zlar: jamiyat, yoshlar, siyosat, tarbiya, ta’lim, yuksak ma’naviyat, ijtimoiy faollik, ma’naviy kamolat, taraqqiyot, mustaqil dunyoqarash, musiqqa tarbiyasi, milliy musuqa, milliy an’ana.

Har bir jamiyatning, unda yashayorgan insonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatlarning yetakchi kuchlari hisoblanmish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog’liq.

Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Chunki zamonaviy bilim va ko’nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o’z zimmasiga olib biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg’ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir. Yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo’lsa, turli yod illatlarga qarshi imuniteti ham shuncha kuchli bo’ladi. Malumki, Prezidentimiz ijtimoiy, ma’naviy-marifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo’lga qo’yish bo’yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surib, yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya

va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini shakillantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotinqizlar bandligini ta'minlash masalalari davlat siyosati darajasida e'tiborga olindi.

«Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug'zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan»-deya takidlaganlar davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati esa qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan shakillanib kelgan asil milliy va diniy qadriyatlarimizni ahamiyati nechog'lik muhim ekanini ko'rsatib bermoqda. Ayniqsa, yangilanayotgan O'zbekistonda “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” tamoyiliga asoslanib, milliy g'oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yanada dolzarb ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Sharq taronalari” o'n birinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi tabrik so'zida shunday degan edilar:”Dunyoda qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi o'ta murakkab zamonda millati, tili va dini turlicha bo'lgan millionlab odamlarni hech qanday tarjimonsiz do'st qiladigan, ular o'rtasida hamkorlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlaydigan musiqa san'atining o'rni va ta'siri tobora ortib bormoqda.”

Biz yashab turgan jamiyat taraqqiyotida musiqa va san'atning o'rni beqiyosdir. Har bir millat va elatlarni birlashtiradigan an'analarimizni mustahkamlaydigan ham mana shu hisoblanadi. Har qanday ko'ngilni o'ziga rom eta oladigan, insonlarni qalbiga ezgulik urug'ini ekib boshqa yomon illatlarga

qarshi kurashadigan ham musiqa desak mubolag'a emas. Shu o'rinda o'z-o'zidan sezilib turibdiki musiqa san'ati qanchalik beqiyosligi hamda tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega ekanligini.

Bu boradagi ko'pgina ilmiy tadqiqotlarda xalq musiqa me'rosi tarkibidagi folklor, mumtoz va maqom kuy-ko'shiqlarini yuksak tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega ekanligi, ularni yoshlar ma'naviy olamiga chuqurroq singdirish, badiiy-estetik tarbiyasida to'g'ri va maqsadli foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishishi mumkinligi asoslab berilgan. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: "Agar biz asl, xaqiqiy san'atni bilmoqchi, o'rganmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak. Agar biz san'atni ma'daniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo mumtoz musiqa san'atini ko'tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatimizni safarbar etishimiz zarur"

Haqiqatdan ham xalq musiqa merosida eng ommaviylik kasb etuvchi qo'shiqchilik ijodiyotiga oid folklor, mumtoz va maqom asarlarining badiiy mazmuni tahlil qilinsa, ularda "xalq donishmandligi"ning eng ulug' va oliyjanob g'oyalari mujassamlanganligini ko'rish mumkin. Masalan, folklor yo'nalishidagi xalq qo'shiqlari o'z mazmunida xalqning eng muhim, o'ziga xos turli ko'rinishlari va qirralarini aks ettiradi. Shu sababli musiqa darslarida ularni o'rganish o'quvchi-yoshlarni milliy o'zligini anglashda ahamiyat kasb etadi.

Bolalar tomonidan musiqaning idrok etilishi avvalo milliy musiqamizni idrok etishdan boshlanishi lozim. Milliy istiqloq sharofati bilan milliy musiqiy merosimizga milliy-ma'naviy qadryatlarimiz qatorida alohida e'tibor berila boshlandi. Endilikda biz xalqimizning ajoyib, xilma-xil va bir biridan go'zal mahalliy musiqiy an'analarini tinglab idrok etish va ulardan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldik. Milliy musiqa xalqimiz boy ma'naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolardagi go'zal badiiy ifodasi bo'lish bilan bir qatorda yangi, buyuk davlat bunyodkorligi yo'lida tinmay mehnat

qilatotgan xalqimizga, jamiyatimiz ma'naviy ruhiy quvvat bag'ishlovchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban birbiriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrlanib an'analarimizga bo'lgan e'tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo'nalish kasb etdi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosiga ko'tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida ehtirol etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan. Zero, bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi.

Ashula, musiqa, raqs ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo'lmish musiqiy san'at bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o'zgarishlar paydo bo'ldi. Prezidentimiz ta'kidlaganlariday, ma'naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an'ana va rasm- rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash singari juda ko'p omillarni o'z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

Musiqaning ana shunday o'tkir tarbiyaviy kuchidan foydalanish, san'at vositasida yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash umumta'lim maktablari zimmasidagi eng muhim va doim dolzarb bo'lgan vazifalardan biridir. Davlatni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish hamda mustaqilligimizni yanada mustahkamlashda o'tmish me'rosimiz milliy musiqa merosimiz o'rni alohida.

Xulosa qilib aytganda, musiqiy madaniyatimizning xalq ma'naviy hayotidagi o'rni beqiyosdir. Musiqiy madaniyat xalq ma'naviy dunyosining ajralmas qismi bo'lib, uning ma'naviy ehtiyojini barcha davrlarda qondirgan va har doim hamdard bo'lgan, beminnat xizmat qilgan. Zero, bugungi mustaqillik davrimizda ham o'zining ma'naviy burchini muqaddas bilib, xalqimizga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham musiqa madaniyatimiz bugungi kunning ulkan ijod maydoniga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. S.G'oziyev "Ma'naviy komillik sirlari". –T., Istiqlol, 2005

2. Sharipova G.M. «Musiqqa o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanma T. 2008yil.
3. O.Ibrohimov . Musiqqa darsligi. V-VII sinf. T.2008 yil.
4. E.Fayzullayev. —Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarini badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi.T.Fan va texnologiyalar nashriyoti-2007yil.
5. S.Yo'ldosheva. Badiiy qadriyatlarga estetik ehtiyojlar omili sifatida talabalar qiziqishlarini faollashtirishning pedagogic asoslari. Toshkent 2007 yil.
6. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. (13.00.01.), 2006 y.,
7. Begmatov S, Q.Mamirov.Musiqqa. 6-sinf uchun darslik.Toshkent.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-2004yil.
8. O.Ibrohimov, Sh.Sodiqov. Musiqqa. 7-sinf uchun darslik. T.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti-2004yil.